

CHET EL ADABIYOTLARIDAGI IBORALARNI TARJIMA QILISHDA KO`P UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR

Mavlanov Solijon Davronovich

*O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti
Ispan tili nazariy fanlar kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Tarjima - murakkab faoliyat. Uning murakkabligi muammolarga boy ekanligi bilan bevosita bog'liq. Ular haqida yetarli tasavvurga ega bo'lish, mazkur faoliyat mohiyatini teran tushunish imkonini beradi. Shu bois ushbu ishda chet el adabiyotlaridagi iboralarni tarjima qilishda ko`p uchraydigan muammolar tavsiflangan.

Kalit so`zlar: til, tarjima, madaniyat, tanqid, tahrir, tahlil, uslub, sharh, izoh, tushunish, matn turlari, tarjimon omili, tarjima birligi.

KIRISH

Tarjima – ilm va san'at. Ilm bo'lganda ham, qanchadan-qancha buyuk mutafakkirlaru, ilmu-ma'rifat ahlining xayolini asrlar davomida band etib kelayotgan murakkab ilm. San'at bo'lganda ham, san'atlar shohi. Unga teng keladigan san'at yo'q.

Bu ilmu san'atning o'ziga xos murakkabliklari, unga oid muammolar alohida o'rganib chiqilganida yaqqol namoyon bo'ladi. Izlanishlar dalolat berishicha, tarjima ilmiga oid manbalarda ushbu faoliyatga tegishli u yoki bu muammo muayyan darajada muhokama etilgan hollar uchraydi. Biroq mazkur faoliyatga oid deyarli barcha muhim muammolar umumlashtirilgan holda tavsiflangan hol uchramaydi.

Mazkur ishning yangiligi, unda aynan shunday muammolar atroflicha ochib berilganida o'z ifodasini topgan. Albatta, bu hol tarjima mohiyatini teran tushunish, unga oid tadqiqotlarni to'g'ri tashkil etish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan bu ish dolzarb ahamiyatga ega va undan bahramand bo'lish, nafaqat tarjima ilmi yoki amaliyoti sohasida faoliyat yurituvchilar, balki shu faoliyat masalalariga qiziquvchilarning barchasi uchun foydadan xoli emas.¹

Tarjimashunoslikning lingvistik muammolari til birliklarini tarjima birligi sifatida ko'rish imkoniyatini beradi. Ma'lumki, grammatikaning ikkita asosiy sathi mavjud. Shu nuqtai nazardan tarjimaning grammatik muammolariga qaraydigan bo'lsak, morfologiya sathida morfemalar, sintaksis sathida so'z birikmasi va gaplar tarjima birligi bo'lishi mumkin. Bu fikr rossiyalik tarjimashunos olim L.S. Barxudarov

¹ Крюков, А. Н. Понимание как переводческая проблема // Кухаренко, В. А. (ред.). Перевод и интерпретация (Сборник научных трудов). – Москва, 2018. – С. 65.

tomonidan bundan bir necha o‘n yil avval —*Язык и перевод* kitobida ilgari surilgan edi.²

Mohir tarjimonlarning mehnati tufayli jahonning buyuk shoir va yozuvchilari tomonidan yaratilgan asarlardan ajdodlarimiz huzur qilib kelganlar, hozir esa o‘zimiz ham farzandlarimiz bilan birgalikda bahramand bo‘lib kelmoqdamiz. Muayyan ixtisoslikka doir ma‘lumotga va yillar davomida to‘planadigan tajribaga ega bo‘lmay turib, tilga oid ma‘lumoti bo‘lmagan kishi, chet tilini yaxshi bilsa ham hech qachon yaxshi tarjimon bo‘la olmaydi. U yoki bu darajada aqlli va dono kishilarning ma‘lum bir matni «Hech bir qiyin joyi yo‘q», - deb bilib, tarjima qilishga urinishganlariga, biroq asliyatning birinchi sahifasini ochishlari bilan faqat professional tarjimon hal eta oladigan muammolar bilan to‘qnash kelganlariga, o‘z malakalari yetishmasliklariga iqror bo‘lib, tarjimini chetga surib qo‘yishganlariga hammamiz ham guvoh bo‘lganmiz desam lof qilmagan bo‘laman. Nima uchun shunday bo‘ladi? Chunki professional tarjimon nafaqat chet tilini, balki ona tilida to‘g‘ri so‘zlash va yozishni yaxshi biladi, u so‘z boyligiga ega bo‘libgina qolmay, ushbu boylıkdan to‘g‘ri va mohirona foydalanishni biladi, muayyan kishining tarjima qilinishi kerak bo‘lgan nutqini tarjima tilida talab darajasida bayon eta oladi. Axir ko‘p hollarda xorijliklarning jonli tili adabiy bo‘lmagan o‘zbek tiliga emas, balki kitob tiliga tarjima qilinadi. Shuni ham yoddan chiqarmaslik kerakki, tarjimon matni to‘g‘ri tarjima qilishi uchun gap nima to‘g‘risida borayotganligini yetarlicha aniq tasavvur qilishi, teran bo‘lmasa ham bayon etilayotgan mavzuga doir bilimlarga ega bo‘lishi kerak. Shu bois umumiy barkamollik, allomalik, keng saviya – yaxshi tarjimon tabiatida shakllangan sifatlar bo‘lishi darkor. Kishining o‘z ixtisosligiga oid bilimlari, agar u tarjimon sifatida tayyorgarlikdan o‘tib, yetarlicha katta tajriba to‘plasa, tegishli matnlarni tarjima qila olishiga omil bo‘ladi.³

Tarjimashunoslikda morfemaning tarjima birligi bo‘la olishi uchun uning nazariy jihatlarini hisobga olish zarur bo‘ladi.

Asosiy so‘z turkumlari ot, fe‘l, sifat, ravish, son va shu kabilar o‘z morfemalariga ega. Masalan, ot yasovchi morfemalar, fe‘l yasovchi morfemalar va hokazo. Mazkur maqolada ot yasovchi morfemalar ustida to‘xtalamiz. Bu masalaga ikki xil yondashuv mavjudligini ta‘kidlab o‘tish lozim. Birinchisi, tarjimada ot yasovchi, fe‘l yasovchi, sifat, ravish, son va hokazo so‘z turkumlarini yasovchi morfemalar morfemik tahlil qilinganda tarjimada qaysi yo‘llar bilan berilishini, ya‘ni ot yasovchi morfema tarjimada ot yasovchi morfema bilan beriladimi yoki asliyatdagi morfema yordamida yasalgan ot o‘zak so‘z bilan beriladimi yoki ikkinchi yondashuv tarjima tilida ham ot yasovchi morfemalar tarjima birligi sifatida uning ot yasovchi morfemasining ekvivalenti yordamida beriladimi?

² Бархударов Л.С. Язык и перевод. – М.: Международные отношения, 2013.

³ Dolimov Shokir Zokirovich, harbiy tarjimon. “TARJIMA SAN’ATI VA MUAMMOLARI” Toshkent-2016.

Ot yasovchi morfemalar tarjimasida haqida bevosita fikr yuritishdan oldin ingliz tilidagi ot yasovchi morfemalar haqidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

Ingliz tilida eng qo'llaniladigan ot yasovchi morfemalarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

-er, -or, -ar, -ist, -ian, -ing, -ment, -ion, -ism, -ess, -able, -al, -dom, -en, -ence, -hood, -ness, -ish, -ship, -th va hakoza.⁴

Tarjimaga xos yana bir muammo tarjima uslubi muammosidir. "Uslub yozuvchining o'zi, uning butun borlig'i, vujudi, yurak tepishi, badiiy mushohada formasi, uning ovozi demakdir. Binobarin, agar tarjimada avtorning uslubi to'g'ri aks ettirilmagan bo'lsa, bunday tarjimaning to'g'riligiga ishonib bo'lmaydi: unda tarjimon avtorning o'rniga o'zini qo'ygan bo'ladi"⁵, - deb yozadi G'. Salomov. Umuman olganda, bu muammo haqida yozmagan tarjimashunos deyarli bo'lmas kerak. Biroq tarjima ilmida tarjima uslubi muammosi nimalardan iborat ekanligi hanuzgacha to'liq ochib berilgan, deb bo'lmaydi.

Tarjimaning navbatdagi muammosi sifatida tarjimon omili muammosi e'tirof etilishi mumkin. Chunki, muayyan matnni tushunuvchi ham, uni boshqa tilda ifodalovchi ham aynan tarjimon yoki tarjima qiluvchi shaxsdir. Bu muammo haqida I. Leviy shunday yozgan: "Asliyatni yaratish jarayoniga nisbatan tarjimonning ijodiy jarayonini o'rganish mushkulroq, chunki uning izlari bizga faqat til orqali ifodalangan holda, odatda nozik mazmunli tushlarga, berilgan bo'ladi, qolaversa, aynan tarjimonning ijodiy jarayoniga ko'pincha jurnal yoki nashriyot tahrirchilari va boshqa tuzatuvchilar aralashishadi"⁶

Tarjima haqiqatan ham muammolarga boy faoliyat bo'lib, shu faoliyatga oid tadqiqotlarda ular albatta inobatga olinishi kerak. Aks holda bu borada olib borilayotgan ishlar yaxshi natija bermasligi tabiiy. Tarjima ilmining ayni paytdagi ahvoli ham shundan dalolat beradi. Qolaversa, yuqorida qayd etib o'tilgan muammolarga quyidagilarni ham qo'shish mumkin: Tarjimaning azaliy muammosi, tarjima birligi muammosi, tarjima turlari (yozma, og'zaki, mashina tarjimasida) muammosi, adabiyot sohalari va matn turlari muammosi, tarjima bo'lmaslik muammosi (problema neperevodimosti), vositachi til orqali tarjima muammosi, mafkuralar ta'siri muammosi, lug'atlar ahvoli muammosi, tarjima usullari va ularni to'g'ri qo'llash muammosi shular jumlasidan.

⁴ Safarov Odiljon Mamadievich TARJIMA MUAMMOLARINING UMUMLASH TIRILGAN TAVSIFI // Scientific progress. 2021. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tarzhima-muammolarining-umumlashtirilgan-tavsifi>.

⁵ Salomov, G'. Badiiy tarjima haqida o'y va mulohazalar // Tarjima san'ati (maqolalar to'plami, 3-kitob). - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2013. - B. 53

⁶ Leviy, I. Analiz perevoda // Iskusstvo perevoda. - Moskva: Progress, 2014. - S. 217-218.

XULOSA

Sir emaski, tarjimaga oid deyarli barcha zamonaviy tadqiqotlarda shu faoliyat bilan bog‘liq masalalar turlicha, ko‘p hollarda qiyosiy tilshunoslik yoki qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yoritib kelindi. Buning qibatida kelib chiqqan ziddiyatlar tarjima ilmi taraqqiyotiga to‘sqinik qilib qilib keldi. Tarjimon omili masalasi esa, bunday tadqiqotlarda deyarli e’tiborsiz qolib keldi. Albatta, bu katta xato edi. Holbuki, har qanday holda ham, muayyan tarjima qay darajada amalga oshirilgani yoki amalga oshirilishi tarjimon omiliga, ya’ni uning bilimi va mahorati bilan bog‘liq masalalarga bevosita bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Крюков, А. Н. Понимание как переводческая проблема // Кухаренко, В. А. (ред.). Перевод и интерпретация (Сборник научных трудов). – Москва, 2018. – С. 65.
2. Бархударов Л.С. Язык и перевод. – М.: Международные отношения, 2013.
3. Dolimov Shokir Zokirovich, harbiy tarjimon. “TARJIMA SAN’ATI VA MUAMMOLARI” Toshkent-2016.
4. Safarov Odiljon Mamadievich TARJIMA MUAMMOLARINING UMUMLASHIRILGAN TAVSIFI // Scientific progress. 2021. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tarzhima-muammolarining-umumlashtirilgan-tavsifi>.
5. Salomov, G‘. Badiiy tarjima haqida o‘y va mulohazalar // Tarjima san’ati (maqolalar to‘plami, 3-kitob). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2013. - B. 53
6. Levij, I. Analiz perevoda // Iskusstvo perevoda. – Moskva: Progress, 2014. – S. 217-218.
7. www.buxdu.uz
8. www.elibrary.ru
9. www.ziynet.uz